

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMYX XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnalni bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashriyot bo'limga tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

| | | | |
|-------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------|--|
| FARMONOV Sh. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof. | ZUOGANG PENG (Xitoy) | Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof |
| ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof | PANASYUK M (Rossiya) | Qozon federal universiteti, g.f.d, profr |
| A'ZAMOV A (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof | VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) | Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof |
| SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston) | O'zRFA t.f.d., prof | SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston) | Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof |
| TURAYEV A. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof | ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya) | Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq. |
| RASHIDOVA S. (O'zbekiston) | O'zRFA k.f.d., prof | SCOTT LEVI (AQSH) | Ohio State University, PhD, prof |
| ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston) | OshDU k.f.n., dots | AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston) | Abay nomidagi Qozog' milliy pedagogika universiteti |
| TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, b.f.d., prof | SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya) | Ataturk University |
| G'ULOMOV S. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, i.f.d., prof | SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston) | E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti |
| JUMABEKOVA B (Qozog'iston) | b.f.d., prof | | |

Tahririylashriyot kengashi

IJTIMOY FANLAR BO'YICHA

| | | | |
|-----------------|--|----------------|----------------------------|
| XONKELDIYEVA G. | FarDU, i.f.d., prof. | SIDDIQOV I. | FarDU, f.f.d., prof |
| XAKIMOV N. | FarDU, f.f.d., dots. | YULDASHEV S. | FarDU, f.f.d. (DSc) |
| ISOMIDDINOV M. | FarDU, t.f.d., prof | G'ANIYEV B. | FarDU, f.f.d., (DSc) dots. |
| USMONOV B. | FarDU, t.f.d., prof | QOSIMOV A. | FarDU, f.f.d., prof. |
| MAXMUDOV O. | FarDU, t.f.d., dots | QAMBAROV A.A | FarDU, f.f.d., prof |
| QAHHOROVA M. | Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof. | ALIMOVA N.O | FarDU, t.f.b.f.d., dots |
| QAMBAROV A. | FarDU, f.f.d.prof. | XASANOV M.X | FarDU, t.f.b.f.d., prof |
| MAMATOV M. | FarDU, f.f.d., prof. | SHAMSIYEVA M.X | FarDU, t.f.b.f.d., dots |
| DADABAYEVA | FarDU, yu.f.f.d., dots | | |

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rınboyev I.

Tahririylashriyot manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

Sh.Abdug'affor

XX asr boshlarida Farg'ona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Ta'llimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova

XX asrning 20-30 yillarida O'zbekiston SSR maktablarida tarix fanining

o'qitilishi masalalari 111

J.Sultonov

Chingizxonning tangut davlatini egallash yo'lidagi o'ziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qataq'on siyosati qurboni bo'lgan jadidlarning reabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yo'Ichiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarida Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik an'analari bilan bog'liq nomoddiy madaniyat (Farg'ona vodiysi misolida) 141

F.I.Qayumova

XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar

(Farg'ona vodiysi misolida) 147

B.A.Usmonov

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VILOYATIDA SPORT INFRASTRUKTURASINING RIVOJLANISHI

РАЗВИТИЕ СПОРТИВНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

DEVELOPMENT OF SPORTS INFRASTRUCTURE IN FERGANA REGION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Jurayev Xusniddin Pazliddinovich¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Maqsumov Nabijon Ortiqbeyevich² 

²Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasing rivojlanishi, mustaqillik yillarida sezilarli o'zgarishlari yoritilgan. Shuningdek, 1991-yildan boshlab, viloyatda sport inshootlari qurilishi, mavjud obyektlarning ta'mirlanishi va zamonaliviyashtirilishi boshlandi. Bu jarayon sport turlarini ommaviylashtirish, yoshlari orasida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qildi. 2000-yillarga kelib, viloyatda sport maktabları, o'quv markazlari, zamonaliv sport komplekslari va tibbiy yordam markazlari tashkil etildi. Bu o'zgarishlar nafaqat sportchilarni tayyorlash, balki butun jamiyatda sog'lom turmush tarzini rivojlanirishga ham ijobiy ta'sir ko'ssatdi. Farg'ona viloyatining sport infratuzilmasi bugungi kunda ham jadal rivojlanib, viloyatdagi sport salohiyatini oshirishda muhim rol o'yaganligi bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье описано развитие спортивной инфраструктуры Ферганской области, существенные изменения за годы независимости. Также с 1991 года в регионе началось строительство спортивных объектов, ремонт и модернизация существующих объектов. Этот процесс послужил популяризации спорта, повышению интереса к физическому воспитанию и спорту среди молодежи. К 2000-м годам в регионе были созданы спортивные школы, учебно-тренировочные центры, современные спортивные комплексы и медицинские центры. Эти изменения положительно повлияли не только на подготовку спортсменов, но и на развитие здорового образа жизни в обществе в целом. Было констатировано, что спортивная инфраструктура Ферганской области по-прежнему динамично развивается и сыграла важную роль в повышении спортивного потенциала региона.

Abstract

This article describes the development of sports infrastructure in Fergana region, significant changes during the years of independence. Also, since 1991, the construction of sports facilities, repair and modernization of existing facilities have started in the region. This process served to popularize sports, increase interest in physical education and sports among young people. By the 2000s, sports schools, training centers, modern sports complexes and medical care centers were established in the region. These changes had a positive impact not only on the training of athletes, but also on the development of a healthy lifestyle in society as a whole. It was stated that the sports infrastructure of Fergana region is still developing rapidly and played an important role in increasing the sports potential of the region.

Kalit so'zlar: sport, sport komplekslari, sport infratuzilmasi, sog'lom turmush tarzi, tibbiy yordam, sportchilar, sport maktabları, sportga qiziqish.

Ключевые слова: спорт, спортивные комплексы, спортивная инфраструктура, здоровый образ жизни, медицинское обслуживание, спортсмены, спортивные школы, интерес к спорту.

Key words: sports, sports complexes, sports infrastructure, healthy lifestyle, medical care, athletes, sports schools, interest in sports

KIRISH

Farg'ona viloyati, O'zbekistonning sportga bo'lgan e'tibori va iqtisodiy imkoniyatlari nuqtai nazaridan muhim hududlardan biridir. 1991-yilda O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va keyingi yillarda sportga bo'lgan e'tiborning ortishi, viloyatda sport infrastrukturasi rivojlanishining asosiy

poydevorini yaratdi. Shu bilan birga, 2000-yillarda sport inshootlari, jismoniy tarbiya tizimi va yoshlar sporti uchun qulay sharoitlar yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLIYA

Mustaqillikdan so'ng Farg'ona viloyatida sport infratuzilmasining rivojlanishiga oid bir qancha manbalar mavjud. Mirzayev A. (2001) o'zining "O'zbekistonda sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari" nomli ishida, mamlakat bo'ylab sport infratuzilmasining rivojlanishi va uning ahamiyatini tahlil qilgan. Asarda sport inshootlari qurilishi, mavjud stadionlarning ta'mirlanishi va yangi sport maktablarining tashkil etilishi kabi masalalar yoritilgan. Mirzayev sport infratuzilmasining jismoniy tarbiya tizimiga va yoshlarni sog'lom turmush tarziga bo'lgan ta'sirini ham ko'rib chiqadi[1;62].

Farg'ona viloyatidagi sport inshootlarining qurilishi, shu jumladan Farg'ona va Qo'qon shaharlaridagi stadionlar, 1990-yillarda boshlandi. Ismailov, Sh. (2003) "Farg'ona viloyatining sport salohiyati" nomli maqolasida Farg'onadagi asosiy sport inshootlari va ularning ijtimoiy ahamiyatini o'rganadi. U viloyatda futbol, voleybol, basketbol, boks va kurash kabi sport turlari bo'yicha zamonaviy komplekslar va sport zallarining qurilishi haqida ma'lumot beradi.

2000-yillarga kelib, Farg'ona viloyatida yoshlarni sportga jalb qilish maqsadida ko'plab sport maktablari va o'quv markazlari tashkil etildi. Akhmedov, F. (2004) "Yoshlarni jismoniy tarbiya orqali sog'lomlashtirish" nomli asarida, O'zbekistonning yoshlar sportining rivojlanishiga doir tahlilni keltiradi. Farg'onadagi yoshlar sportini ommaviylashtirish uchun qurilgan sport inshootlari, jumladan sport maktablari va tumanlardagi kichik sport zallari, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishga xizmat qilgan.

Sport maktablari va o'quv markazlarining tashkil etilishi, yoshlarni yuqori darajali sportchilar sifatida tayyorlashga imkon berdi. Toshpulatov, D. (2006) "O'zbekistonning sport maktablari: rivojlanish yo'llari va muammolar" nomli maqolasi yoshlar sporti, shu jumladan Farg'onadagi sport maktablarining ahamiyatini ta'kidlaydi. U bu tizimning sportchilarga va umumiyligi jismoniy tarbiya jarayonlariga ta'sirini tahlil qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sport tarmog'idagi asosiy o'zgarishlar boshlandi. Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasi va jismoniy tarbiya tizimi mustahkamlana boshladi. Avvalambor, viloyatda yangi sport inshootlari qurilishi va mavjudlarini ta'mirlash jarayoni boshlangan edi. Shu davrda sport majmualari va stadionlarning ko'pligi ortib, sportchilar uchun sharoitlar yaratildi.

Farg'ona shahridagi stadionlar: Farg'ona shahrida "Farg'ona" stadionining rekonstruksiya qilinishi, futbol va boshqa sport turlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan zamonaviy sharoitlarni yaratdi. Bu stadionning kengaytirilishi va ta'mirlash ishlari mahalliy sportchilarga yuqori natijalar ko'rsatish imkoniyatini yaratdi.

Sport zallari va komplekslar: Farg'ona viloyatida bir qator sport zallari va komplekslar qurildi. Ular orasida ko'p tarmoqli sport zallari, judo, voleybol va basketbol kabi sport turlari uchun maxsus mo'ljallangan inshootlar o'rinni oldi. Bu inshootlar viloyatdagi yoshlarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga rag'batlantirdi.

2000-yillarga kelib, Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasi yanada rivojlanib, yangi o'quv markazlari va sport maktablari tashkil etila boshladi. Bu davrda jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish maqsadida ko'plab yangi inshootlar qurildi:

Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida yoshlarning uch bosqichli "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda Respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi. 2002-yilda Farg'ona viloyatida o'tkazilgan "Umid nihollari" sport musobaqalarida 11 ta sport turi kiritilgan bo'lsa, 2015-yilda Xorazmdagi "Umid nihollari" musobaqalari 17 ta sport turi bo'yicha o'tkazildi[2;11].

Viloyatda yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida ko'plab o'quv markazlari va to'garaklar faoliyat yuridi. Bu markazlar sport turlariga qiziqish bildirgan yoshlarni tanlab, ularning jismoniy rivojlanishini ta'minlashga yordam berdi.

Sportchilarning jismoniy holatini yaxshilash va ularni tibbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun maxsus klinikalar va salomatlik markazlari tashkil etildi. Bu markazlar sportchilarning jarohatlarni tezda tiklashga va ularga zarur bo'lgan tibbiy xizmatlarni ko'rsatishga yordam berdi.

TARIX

2000-yillarning oxirlarida Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasi yanada zamonaviylashdi. Bu davrda bir qator yangi sport majmualari qurildi, bu esa viloyatning sport salohiyatini oshirishga katta hissa qo'shdi.

Sport maktablari: Farg'onada yoshlarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadirish va ularni yuqori natijalarga tayyorlash uchun maxsus sport maktablari tashkil etildi. Ushbu maktablar futbol, boks, kurash, judo, tennis va boshqa sport turlari bo'yicha yoshlarni tayyorladi[3;8]

Farg'ona shahridagi yirik sport komplekslari: Farg'ona shahrida zamonaviy sport komplekslari va Istiqlol futbol o'yin maydonlari qurildi. Bu komplekslarda futbol, tennis, basketbol va boshqa sport turlari uchun barcha zarur sharoitlar mavjud edi [4;3].

Farg'ona viloyatining boshqa tumanlarida ham sport inshootlari barpo etildi. Bu inshootlar asosan yoshlar sporti uchun yaratilgan bo'lib, mahalliy jamoalar o'tasida sport musobaqalari o'tkazish imkonini berdi. Tuman va shahar darajasida sport festivallari va turnirlar tashkil etilib, ularning ommaviyligi oshdi.

Farg'ona viloyatida sport infrastrukturasi rivojlanishi nafaqat sportchilarni tayyorlash, balki butun jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sport turlariga bo'lgan qiziqish ortdi, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish keng yoyildi.

Sport inshootlarining ko'payishi, yoshlarni sportga jalb qilish va ularning musobaqalarda qatnashish imkoniyatlarini oshirishga olib keldi.

Shuningdek, sport infrastrukturasining rivojlanishi viloyatda iqtisodiy faoliyoti ham oshirdi. Sport inshootlarining qurilishi va ularni boshqarish, mahalliy ish o'rinalarini yaratish, turizm va tadbirdorlikning rivojlanishiga hissa qo'shdi.

XULOSA

Farg'ona viloyatidagi sport infratuzilmasining rivojlanishi, o'sha davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy sharotlarga qarab, mustaqillik yillarda sezilarli darajada kengaydi. 1991-2006 yillar orasida viloyatdagi sport inshootlari, maktablari va komplekslari rivojlanib, yoshlarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga rag'batlantirishda muhim rol o'ynadi. Bu esa nafaqat sportchilarning, balki butun jamiyatning sog'lom hayot tarzini shakllantirishga yordam berdi. Farg'ona viloyatining sport infratuzilmasi har tomonlama rivojlanib, bugungi kunda ham bu yo'nalishdagi ishlar davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzayev A. O'zbekistonda sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Monografiya. – Toshkent: Universitet, 2000.
2. Mustaqillik yillarda o'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport: Uslubiy qo'llanma / Turdimuratov Y.A. Chirchiq: O'zDJTSU, 2023. 44 bet.
3. Расулов О.Т., Пўлатов О.О. ва бошқалар. Ўзбек миллий ўйинлари. Услубий қўлланма. – Тошкент: ЎзДЖТИ, 1996.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.10.2009 dagi O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi investitsiya dasturi to'g'risida PQ-1213-son Qarori